



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-NOYABR**

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida Buxoro viloyatida jami **8 387,7 mldr. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,6 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

14,2

27,5

58,3


Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2023- yil 1- dekabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



**Bino va inshootlar
qurish**

1 492


**Fuqarolik obyektlarini
qurish**

488

**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

723

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 90,3 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 55,2 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,8 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 18,1 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 139,0 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 26,7 foiz ulushni va 85,9 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.12.2022- y.	01.12.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 994	2 703	90,3
Buxoro shahri	969	849	87,6
Kogon shahri	136	114	83,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	81	73	90,1
Buxoro	224	189	84,4
Vobkent	129	117	90,7
G'ijduvon	207	150	72,5
Kogon	153	149	97,4
Qorako'l	119	116	97,5
Qorovulbozor	60	57	95,0
Peshko'	179	175	97,8
Romitan	262	259	98,9
Jondor	231	220	95,2
Shofirkon	244	235	96,3



**2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,4)



Romitan t. (9,6)



Shofirkon t. (8,7)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	8 387,7	1 187,1	4 894,2	2 306,4
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 986,0	328,1	1241,7	416,2
Kogon sh.	448,6	125,2	273,5	49,9
<i>tuman:</i>				
Olot	441,8	111,1	143	187,7
Buxoro	526,8	22,3	304,8	199,7
Vobkent	390,1	-	268,4	121,7
G'ijduvon	576,2	0,1	275,7	300,4
Kogon	801,3	67,6	569,7	164,0
Qorako'l	322,4	8,3	150,1	164,0
Qorovulbozor	349,3	215	102,6	31,7
Peshko'	540,4	-	365,1	175,3
Romitan	929,3	291,2	430,6	207,5
Jondor	477,1	-	303,7	173,4
Shofirkon	598,4	18,2	465,3	114,9


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 187,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,1 % punktga kamayib, 14,2 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-noyabr uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 61,6 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 77,0%), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 31,3% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 90,8 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,3 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning ko‘rsatkichiga nisbatan 3,6 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,4% ni tashkil etgan holda 4 894,2 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



58,3

2023-yil
yanvar-noyabr

54,7

2022- yil
yanvar-noyabr



MA‘LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Shofirkon tumanida (465,3 mlrd. so‘m yoki umumiylajmaga nisbatan 77,7 %), Kogon tumanida (569,7 mlrd. so‘m yoki umumiylajmaga nisbatan 71,1 %) va Vobkent tumanida (268,4 mlrd. so‘m yoki umumiylajmaga nisbatan 68,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 27,5 % ni tashkil etdi yoki 2 306,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **391,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **7 995,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-noyabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **68,6 %** i yoki **5 757,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

12,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **692,9 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **3 083,2 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,6 %** ni tashkil etdi.

53,6 %

34,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 981,8 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	8 387,7	104,6	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	1 986,0	105,9	23,6
Kogon sh.	448,6	86,1	5,3
<i>tuman:</i>			
Olot	441,8	102,4	5,3
Buxoro	526,8	104,6	6,3
Vobkent	390,1	96,5	4,7
G'ijduvon	576,2	104,1	6,9
Kogon	801,3	128,4	9,6
Qorako'l	322,4	111,6	3,8
Qorovulbozor	349,3	87,3	4,2
Peshko'	540,4	101,2	6,4
Romitan	929,3	109,7	11,1
Jondor	477,1	109,0	5,7
Shofirkon	598,4	100,9	7,1



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

12,3

2022- yil
yanvar-noyabr

6,5

45,0

49,5

42,7

44,0

2023- yil
yanvar-noyabr



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,5 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,5 % punktga ko'payib, 49,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'payib, 44,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,7 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,3 % (0,3 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




Yirik qurilish tashkilotlari
2022-yil yanvar-noyabr



2023-yil yanvar-noyabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,5 % punktga kamaydi va 37,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 63,0 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,5 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	8 387,7	5 521,3	2 221,5	914,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 986,0	1 078,9	738,6	168,5
Kogon sh.	448,6	204,6	179,6	64,4
<i>tuman:</i>				
Olot	441,8	276,7	44,9	120,2
Buxoro	526,8	369,9	118,8	38,1
Vobkent	390,1	294,9	73	22,2
G'ijduvon	576,2	450,6	97,4	28,2
Kogon	801,3	474,7	255	71,6
Qorako'l	322,4	240,8	62,9	18,7
Qorovulbozor	349,3	127,7	29,2	192,4
Peshko'	540,4	354,5	141,7	44,2
Romitan	929,3	705,2	175	49,1
Jondor	477,1	319,9	120,9	36,3
Shofirkon	598,4	352,9	184,5	61



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
hududlar kesimida qurilish ishlari
2023- yil yanvar-noyabr



ulushi % da



- Bino va inshootlarni qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari

2023- yil yanvar-noyabr uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	4 147,6	102,9
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	6 824,8	103,9
Kogon sh.	6 998,3	84,5
<i>tuman:</i>		
Olot	4 272,2	100,9
Buxoro	2 991,7	102,8
Vobkent	2 655,8	94,9
G'ijduvon	1 805,1	102,3
Kogon	9 619,3	125,8
Qorako'l	1 891,1	110,1
Qorovulbozor	17 728,2	85,1
Peshko'	4 166,7	99,5
Romitan	6 199,2	107,8
Jondor	2 601,3	107,1
Shofirkon	3 233,0	99,6



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr uchun



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-noyabr oylariida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 17 728,2 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,1 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 9 619,3 ming so'm (yoki 125,8 %), Kogon shahri – 6 998,3 ming so'm (yoki 84,5 %), Buxoro shahri – 6 824,8 ming so'm (yoki 103,9 %) Romitan tumani – 6 199,2 ming so'm (yoki 107,8 %) va egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**